

---

# QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI ILYOSBEK NOVIKOVNING KONSTITUTSIYA KUNI MUNOSABATI BILAN TUMAN AHLIGA BAYRAM TABRIGI



Assalomu alaykum, muhtaram yurtdoshlar! Qadrli qo'shtepaliklar!

Bugun siz bilan biz jonajon yurtimizning bosh Qomusi-konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 30 yilligi arafasida turibmiz. Bu albatta, har birimizda milliy g'urur, faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Chunki konstitutsiya har bir insonga eng birinchi galda zarur bo'lgan erkin yashash, bilim olish va qator huquqiy imkoniyatlar shodasini va o'z navbatida burch va majburiyatlarini belgilab beradi-ki, bu insonlarning jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida yashashlariga to'la imkoniyat yaratib beradi. Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan imkoniyatlardan foydalangan holda biz o'z istak, hohishlarimiz yo'lida harakatlanamiz va pirovardida yurt taraqqiyotiga xizmat qilamiz, u belgilab bergan yo'ldan og'ishmay harakat qilib niyat-maqсадlarimizga erishishimiz, bu albatta, yurtimizdagi demokratik jarayonlarning intiqosi hisoblanadi.

Aziz yurtdoshlar!

Ushbu qutlug' sana munosabati bilan barchalaringizni chin dildan muborakbod etaman. Sizlarga oilaviy xotirjamlik, sixat-salomatlik, el-yurt taraqqiyoti yo'lidagi mehnatlaringizga unum va baraka tilab qolaman.

Yana bir bor, ayyomingiz qutlug' bo'lsin, aziz hamyurtlar!

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-12-08 07:36:51